XORAZM VILOYATI BOG‘OT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 26-sentabr | 588-12-170-Q/24 | Bog‘ot tuman hokimligi

Bog‘ot tumani Oq tepa mahallasi Toshkent ko‘chasiga yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

Bog‘ot tumani ichki ishlar bo‘limining 2024-yil 26-avgustdagi 10/5156-sonli so‘rovnomasini ko‘rib chiqib, Bog‘ot tumani Oq tepa mahallasi Toshkent ko‘chasida transport oqimining ko‘pligi, ko‘plab tirbandliklar va tez tibbiy yordam mashinalarining kirib-chiqishidagi noqulaylik va tartibsizliklar hamda yo‘l transport hodisalarining oldini olish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi 913-XII-sonli qonunining 6,25-moddalari va 2007-yil 2-oktabrda “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi O‘RQ-117-sonli qonunining 7-moddasiga asosan,

Qaror qilaman:

1. Bog‘ot tumani Oq tepa mahallasi Toshkent ko‘chasida transport oqimining ko‘pligi, ko‘plab tirbandliklar va tez tibbiy yordam mashinalarining kirib-chiqishidagi noqulaylik va tartibsizliklarni oldini olish uchun transport vositalarining harakati G‘arb tomondan Sharq tomonga qilib belgilansin.

2. Oq tepa mahallasi Toshkent ko‘chasining belgilangan qismiga 3.1 (kirish taqiqlanadi), 3.27 (transport vositalarining to‘xtashi va to‘xtab turishi taqiqlanadi), P (vaqtinchalik transport vositalarining to‘xtash joyi), 4.1.2 (harakatlanish o‘nga), 4.1.3 (harakatlanish chapga), 5.5 (bir tomonlama harakatlanish yo‘li), 5.6 (bir tomonlama harakatlanish yo‘lining oxiri) va 5.16.2 (piyodalar o‘tish joyi) yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat qilinsin.

3. Bog‘ot tumani obodonlashtirish boshqarmasi (A.Bekchanov)ga Oq tepa mahallasi Toshkent ko‘chasining belgilangan qismiga 3.1 (kirish taqiqlanadi), 3.27 (transport vositalarining to‘xtashi va to‘xtab turishi taqiqlanadi), P (vaqtinchalik transport vositalarining to‘xtash joyi), 4.1.2 (harakatlanish o‘nga), 4.1.3 (harakatlanish chapga), 5.5 (bir tomonlama harakatlanish yo‘li), 5.6 (bir tomonlama harakatlanish yo‘lining oxiri) va 5.16.2 (piyodalar o‘tish joyi) yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

4. Tuman IIB YXXG (O.Egamov)ga transport vositalari va piyodalarning xavfsiz harakatlanishi uchun ushbu yo‘l belgilariga rioya qilinishini nazorat qilish vazifasi topshirilsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Xo‘janiyozov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **J.Nazarov**